# HAR BIR MUVAFFAQIYATLI ODAM BUNI BILISHI KERAK

**Odinayeva Muxlisa Ilhombek qizi**
Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti 3-kurs talabasi.
E-mail: Ilhomovnamuxlisa2772@gmail.com

**ANNOTATSIYA**

XXI asr shiddat bilan rivojlanyotgan davr. Bu davrda muvaffaqiyatli inson juda ko‘p va ularning barchalaribunga yengil yo‘l bilan erisgishmagan. Bu mavzuning dolzarbligi ko‘pgina insonlar pulim bo‘lsa boy va muvaffaqiyatliman deb o‘ylashlarini noto‘g‘ri ekanligini ochib berishdir.

**Kalit so‘zlar:** Biznes, muvaffaqiyatli inson, bilim yuqolmas boylik, Mcdonald’s asoschisi.

Inson bu hayotga kelar ekan yaxshi yashash yaxshi kiyinish va balki shinam va go‘zal hayoti bo‘lishi xohlaydi. Afsuski xohlashni o‘zi yetarli emasligini bilishmaydi. Inson muvaffaqiyatga erishish uchun tinmay ishlash kerak deb o‘ylaydi ammo, bu fikrlar juda eskirgan. Sababi hozirda hatto ishlamay  turib ham bilimlar ortidan millionlar topsa bo‘ladi. Birgina misol passiv daromad va bitkoinlar, mobilgrafiya, investitsiya, moliya kabi sohalar. Bu sohalarda jismoniy kuch emas aqliy salohiyat bilan pul ishlab topish mumkin. Bizga hamma narsa jismoniy kuch bilim muvaffaqiyatga erishish mumkinligini kattalar ota, ona ,buvi ,buvajonlarimiz aytib borishgan va biz ham shu fikrda qotib qolganmiz. Ammo, bu fikrdan chiqish va keng fikrlash vaqti keldi. Bu zamon bilimsizlarni qabul qilmaydi, ayni rivojlanyotgan davrda insonlar ham rivojlanishi juda zarur.Muvaffaqiyatni oltin qonuni bor u xazinaning kalitiga o‘xshaydi  kelganda ushlab qolish esa xazinachining ya’ni zukko insonning ishidir.Robert Kiyosakini "Boy ota, kambag‘al ota" asarida shunday so‘zlar mavjud "Kambag‘al va o‘rta aholi pulga ishlaydilar. Boylar esa pulni o‘zlariga ishlashga majbur qiladilar" bu so‘zlarda juda katta mohiyat yotibdi desam adashmayman. Kambag‘al insonlar pul topish uchun hayot kechirish uchun tunu kun ishlashsa, boylarga esa ularning pullari ishlaydi ulardam faqatgina bilim va ko‘nikmalar talab etiladi halos. Kambag‘allar kam ish haqi olsalar boshqa ish izlashadi. Boylar esa yangi loyihalar ketida bo‘lishadi. Bu ikki qarashning esa farqi katta. Omadli bo‘lish uchun birgina bilimning o‘zi yetmaydi hayot darslari ham muvaffaqiyatli bo‘lish uchun zarur bilim sanaladi. Ammo har bir biznes uchun ham mablag‘ kerak bo‘ladi. Agar mablag‘ bo‘lmasa uni ishlab yig‘ish yoki odiygina boshni ishlatish kerak.

Muvaffaqiyatli insonlarning yo‘li. Inson hech qachon izlanishdan to‘xtamasligi zarur. U sabr bilan amma harakatni ham kanda qilmasdan yo‘lida qatiyan turmog‘i va shu yo‘lda qattiq intilmog‘i kerak. Biz insonlarni yo‘qotishdan qo‘rquvimiz bor, tavakkalchilik biz uchun emas deb bilamiz.Bilimsiz muvaffaqiyatni ushlab qolish ham murakkab ish demakdir. Albatta bilim olish bu hayotimizda hech qachon yakuniga yetmas narsaligini unutib qo‘ymasilimi kerak. 1929-yilda AQShda "Ulkan depressiya" holati bo‘lib o‘tgan bu hodisalar paytida Amerikaning eng bky va mshhur odamlaning ko‘plab qismi inqirozga uchrab, qazrdirlarga aylanib qolishgan. Ular puliz ko‘p yetarli degan hayollarida moliyaviy bilimni chuqur o‘rganmanlar va bu katta inqozlarga uchrashalariga sabab bo‘lgan. Ammo muvaffaqiyatli insonning yo‘li bunday bo‘lmaydi, u o‘z yo‘lidan to‘xtamaydi, chekinmaydi. Aksincha o‘z maqsadi yo‘lida qatiyan turadi va kurashadi. Hayotimizda shunaqa katta o‘inlar yuz bermoqdaki afsuski biz o‘sha o‘yinlar qopqonidamiz biz pul o‘yini qopqonidamiz. Biz pulga ishlayapmiz lekin, aksincha pul bizga ishlashi kerakligi unutyapmiz. Bunga asosiy sabab esa havas, qo‘rqoqlik va hayajonimiz sabab. Lekin bundan qutulishning yo‘li bor bu bilim olish. Bilim.qachongi uqib olingda, hayotimizda qo‘llay olganimizdagina foydali bilim bo‘ladi. Muvaffaqiyatlar haqidagi kitoblarni o‘qib bu insonlarning qanchalar muvaffaqiyatli ekanligini ular bu yo‘lda tinimsiz harakatda bo‘laganliklariga amin bo‘ldim va bu ish meni ham qo‘limdan keladiku deya o‘zimga savol berdim. Javoblari esa turlicha.

Million dollar xatolar. Bu kitobni juda ko‘pchilik biladi va sevib o‘qigan. Bu kitob muvaffaqiyat, biznes va undagi xatolar tavakkalchilikdan qo‘rqmaslik yiqilsa ham yo‘lda davom etish, to‘g‘ri partniyor tanlash, pulni meyorida to‘g‘ri sarflash va sbu kabi millionlab maslahatlar berilgan moliyaviy bilimlarga asoslangan kitob. Men bu kitobni sotib olganimga 2 yilcha bo‘ldi ammo mohiyatini endi anglab boshlayapman. Men bu kitobni mohiyatini tushunganim sari oldin uni shunchaki o‘qiganimni uqib olmaganimni tushunyapman. Bu kitobni o‘qishdan oldin insonda ozgina bo‘lsa ham moliyaviy bilim haqida tushuncha bo‘lish lozim. Sababi bu kitob juda o‘g‘ir bilimga ega ekan. Ha bu kitobmi hali ham uqib bo‘lmadim lekin, bu kitobni qayta-qayta o‘qib chiqish menga uqib o‘rganishimda ko‘mak bo‘lmoqda. Bu million dollarlik hatolar insonni yo qashoqa yo boyga aylantiradi. Pulga ishlashni emas pulni o‘zimizga ishlashga majbur qilishimiz kerakligi bu kitobda ham aks etgan. Har bir bob so‘ngida esa maslahatlar berilgan. Bu asar muallifi Pavel Annakov 11 yillik tadbirkorlik tajribasiga ega shaxs. Bu insonning hayot yo‘lidagi qiyinchilik tavakkalchiliklari insonni lol qoldiradi. O‘z yo‘lidan chekinmagan va hammasiga 0 dan erishgan bunday insonlar tarixda qoladilar. Pavel Annakovning oltinga teng bir so‘zlari bor “ Mag‘lub insonni hech kim eslamaydi,ular faqat gazetadi maqollarda kasod bo‘lgani haqida so‘zlar bilan eslanadilar. Ularni tarix ham unutadi ammo muvaffaqiyatli insonlarni

barcha kuzati va havas qiladi. Sababi ular yo‘laridan chekkinmay olg‘a harakat qiladilar” bu gaplarda katta mohiyat yotibdi. Hamma muvaffaqiyatni insonlarni kuzatadi va eslab qoladi. Lekin kasod bo‘lgan insonlardan ham ancha bilim olsa bo‘ladi, ular qilgan xato takrorlamaslik bilimini.

**XULOSA**

Muvaffaqiyat aytishga oson erishishda qiyin mashaqqatli narsa. Bu bilimlarni egallashga harakat qilib bormoqdaman. Hozirda o‘z moliyaviy maqsadlarni reja qilyapman va ularning bir nechtasini shu yil ohiriga qadar ro‘yobga oshirmoqchiman. Kuchli ekspert O‘zbekistonlik biznes tadbirkor ayol Shohida Ibragimovaning kurslarida o‘qishdan boshlandi hamma moliyaviy mustaqillik erish uchun izlanishlarim ammo shu yo‘lda bilimlarimni mistahkamlamasdan ish boshlaslikka qaror qildim. Sababi Robert Kiyosakining "Boy ota kambag‘al ota" (Rich dad poor dad) asarida pulga muomala qilish haqida juda kuchli ilmlar berilgan. Bu fikrlarni o‘qib rosti o‘zimning fikrlashimdan juda uyaldim. Men ham sabzi yeyman deb aravakashning chizgan chizig‘idan chiqmaydigan eshshakday pul uchun ishlaganimni angladim. Bu kitobni asta- asta o‘qib boryapman. Undagi gaplarni tushunish uchun ozroq vaqt ham kerak bo‘lmoqda. Ammo shu kitob sababli o‘z xatolarimda xulosa olyapman va sizlarga ham shu kitobni o‘qib chiqishingizni o‘qishdan oldin esa ozroq moliyaviy savodxonlik haqida tushunchalar bilib so‘ngra uqib boshlashingizni maslahat berar edim.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Pavel Annakov "Million dollarlik xatolar" 2021y.
2. Robert Kiyosaki "Boy ota, kambag‘al ota "(Rich dad, poor dad) 2018y.
3.Kel Nyuport " Diqqat " asari. 2021y